

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd April-2025

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH TADBIRLARI**

Muxitdinova Gulbahor Saydakbarovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi “Elektrotexnika va elektronika asoslari” fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun “Elektrotexnika asoslari” fanidan laboratoriya mashg’ulotlarini samarali tashkil etish yo‘llari, ularning imkoniyatlariga moslashtirilgan uslublar va texnik vositalardan foydalanish usullari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, individual yondashuv va inklyuziv ta’lim sharoitida dars samaradorligini oshirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, laboratoriya mashg’uloti, inklyuziv ta’lim, moslashtirilgan jihozlar, interfaol metodlar.

Zamonaviy o‘qituvchini shakllanishi, har bir o‘qituvchi o‘z ustida muntazam ishlab, malakasini oshirib, o‘z tajribalarini o‘quvchilar ta’lim- tarbiyasiga qaratishi lozim. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi ta’limni boshlash imkoniyatiga ega bo‘lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim olishni taqdim etishi bilan katta ahamiyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzluksiz umumiy ta’lim tizimiga kiritishni bildiradi. Ushbu jarayon o‘zining quyidagi huquqiy, ijtimoiy asoslariga ega bo‘lmog‘i zarur. Ya’ni, har bir bola ta’lim olish uchun asosiy huquqga ega va kerakli darajada bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak;

- har bir bola o‘z xosliklariga, qiziqishlariga, qobiliyat va o‘quv ehtiyojga ega;
- ta’lim yuzasidan alohida ehtiyojga ega bo‘lgan ommaviy maktablarda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishlari, bu yerda ularning ehtiyojlarini qondirish maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik metodlar asosida sharoit yaratish zarur;

- barcha yoshdagi bolalar atrofida yashayotgan va ishlayotgan bolalar bilan bir xil sharoitda o‘qishlari va kamol topishlari zarur;

- inklyuziv sinflar o‘quvchilar va pedagoglarga jamiyatga va maktabga yangicha qarashni rivojlantirish orqali jamiyatning eng yaxshi a’zolari bo‘lishlari uchun yordam berishga yo‘naltirilishi zarur.

Davlatimizda bu ta’limga alohida e’tibor so‘ngi yillarda ayniqsa samarali natija bermoqda. Buning yaqqol misoli sifatida “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi (PQ4860, 13.10.2020 yil). Qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi va uni 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Hozirda nogiron bolalarni normal rivojlanayotgan o‘quvchilar bilan teng ravishda o‘qitish tajribasi faol shakllantirilmoqda. Ushbu turdagи ta’lim amaliyoti har bir o‘quvchining individualligini

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd April-2025

qabul qilish g‘oyasiga asoslanadi, shuning uchun jarayon nogiron bolaning ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etilishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Shu jumladan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ham sifatli, teng va qulay sharoitlarda ta’lim olish imkoniyati yaratish bugungi kunda muhim ijtimoiy vazifadir.

“Elektrotexnika asoslari” fani - texnik ta’lim yo‘nalishida o‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarini imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga moslashtirish nafaqat ularning texnik savodxonligini oshiradi, balki hayotiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Kirish

Ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri-barcha o‘quvchilarga, shu jumladan imkoniyati cheklangan bolalarga ham sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishdir. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim kontsepsiysi asosida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning o‘quv jarayonida to‘liq ishtirok etishini ta’minalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, laboratoriya mashg‘ulotlari kabi amaliy yo‘nalishdagi darslarni tashkil etishda alohida yondashuv zarur bo‘ladi.

Asosiy maqsad, o‘quvchilarda elektrotexnika sohasidagi nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash, texnikaviy fikrlash hamda muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quvchilarni oddiy elektr zanjirlari bilan ishlashga o‘rgatish, elektr xavfsizligi qoidalari haqida bilim berish, tajriba asosida xulosa chiqarish, natijalarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, texnik vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish esa eng katta vazifalardan biridir.

Moslashtirilgan o‘quv muhiti.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘quv muhitini moslashtirish lozim:

Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun harakatlanish qulayligi ta’minalangan stol-stullar, masofadan boshqariluvchi qurilmalar. Maxsus uskunalar (masalan, past balandlikdagi laboratoriya stollari) talab etiladi. Masalan, ko‘zi ojiz talabalar uchun Brayl yozuvidagi materiallar yoki audio darsliklar tayyorlash, eshitish qobiliyati cheklanganlar uchun esa matnli materiallar va subtitrlar vizual ko‘maklar (grafik, animatsiya) va imo-ishora tarjimonlari bilan ta’minalash lozim.

Interfaol va vizual vositalardan foydalanish: Dars jarayonida interfaol ta’lim metodlari, vizual va ko‘rgazmali taqdimot slaydlari, savol-javoblar, test savollaridan foydalanish, tajriba orqali o‘rganish, juftlikda ishlash, vizual ko‘mak asosidagi ta’lim talabalarning mavzuni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Texnologik vositalardan foydalanish

PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.

International online conference.

Date: 23rd April-2025



Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish labora-toriya mashg‘ulotlarining qulay va samarali o‘tishini ta’minlaydi. Masalan, maxsus dasturiy ta’minotlar va qurilmalar yordamida imkoniyati cheklangan talabalar uchun o‘quv jarayonini osonlashtirish mumkin. Bu vositalar talabalarga mavzuni mustaqil o‘rganish va takrorlashda yordam beradi.

Virtual laboratoriylar (PhET, Labster va boshqalar), interaktiv doskalar va sensorli planshetlar, kompyuter simulyatsiyalari orqali xavfsiz amaliy tajribalar.

Bu vositalar o‘quvchilarga tajriba o‘tkazish imkonini yaratadi, xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganishga yordam beradi.

Laboratoriya mashg‘ulotini tashkil etish bosqichlari

Tayyorlov bosqichi – topshiriq va materiallarni individual imkoniyatlarga moslash;

Amaliy bajarish bosqichi – o‘quvchiga individual yondashuv asosida tajribalarni o‘tkazish, yo‘riqnomaga asosida ishlash;

Nazorat va tahlil bosqichi – bajarilgan ishlarni baholash, xatolarni aniqlash va tahlil qilish.

Individual va differensial yondashuv

Har bir talabaga uning ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo‘lash muhimdir. Bu o‘qituvchining talaba bilan yaqindan ishlashi, uning qiyinchiliklarini aniqlashi va ularga mos ravishda yordam ko‘rsatishini talab etadi. Undan tashqari har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olib, differensial topshiriqlar tuzish zarur. Bunda:

Osonlashtirilgan tajribalar;

Vizual qo‘llanma bilan birgalikda og‘zaki tushuntirishlar;

Guruhlarda ishlash orqali o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi.

Pedagogik yondashuvlar.

O‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

Har bir o‘quvchining psixologik holatini inobatga olish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan yondashuv. Yondashuvlar moslashuvchanligi va individuallashtirilgan ta’lim. Interfaol usullar, hamkorlikda o‘qitish, tajriba asosida bilim berish kabi metodlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining laboratoriya mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Bu esa ularning tahlil qila olishlari hamda, mustaqil xulosa chiqarishlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirishlariga olib keladi.

Xulosa

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga laboratoriya mashg‘ulotlarini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv muhitini moslashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, pedagogik va metodik yondashuvlarni to‘g‘ri tanlash muhimdir. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun “Elektrotexnika asoslari” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu orqali nafaqat ularning texnik bilim va ko‘nikmalari rivojlanadi, balki jamiyatda faol ishtirok etishlariga ham zamin yaratiladi. O‘qituvchilarining malakasi, texnik vositalar bilan ta’minlanish va pedagogik yondashuv

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd April-2025

sifatli ta’lim jarayonining asosdir. Inklyuziv ta’lim orqali barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori.
2. Torsunova O.V. Korreksionnaya napravlennost urokov angliyskogo yazika dlya detey s ogranicennimi vozmojnostyami zdorovya (Elektronniy resurs).
Rejimdostupa:http://www.metod-kopilka.ru/ctatyana_temu_korreksionnaya_napravlennosturokovangliyskogo_yazika_dlya_detey_s_ogranichenimi_vozmozhnostyami_zdorovya_59609.html (15.10.2016)
3. Муминова, Л. Р. Концепция инклюзивного образования в Узбекистане: материалы II Междунар. науч. практ. конф. «Инклюзивное образование: проблемы, поиск путей решения». Душанбе, 2013. С. 17–20.
4. LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNI O‘QITISH USULLARI VA METODLARI
5. L.M. Qaraxonova, 2.H.O. Tursinboyeva 1O‘zPFITI, “Tabiiy fanlarni o‘qitish texnologiyalari” bo‘limi mudiri, p.f.f.d.(PhD) katta ilmiy xodim, 2O‘zPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti.